

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“TASDIQLAYMAN”**
Jizzax davlat pedagogik instituti
rektori _____ Sh.Sharipov
_____ 2021 yil

Tayanch doktaranturaga kirish uchun xorijiy til (ingliz,nemis,fransuz tili)
fanidan imtihon topshiruvchilar uchun

DASTUR

Jizzax – 2021

Kirish

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qoʻllagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish Oʻzbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi gʻoya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan boʻlsak, uni aynan innovatsion gʻoyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”¹. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohaları shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yoʻlida tez va sifatli ilgarilashini taʼminlaydigan zamonaviy innovatsion gʻoyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi².

Oʻzbekiston Respublikasida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy maqsadi - mamlakatimizda ilmiy salohiyatni oshirish, oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, jahon taʼlim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va maʼlumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini yaratish shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ilgʻor tajribasini chuqur va tanqidiy oʻrgangan holda mamlakatimiz iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqishdan iborat. Bu borada hukumatimiz tomonidan koʻplab, qaror va farmonlar qabul qilindi.

¹ Mirziyoyev SH.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent. “Oʻzbekiston” NMIU, 2018.-B.23.

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PF-5544-sonli Farmoni 2018 y. 21.09.

Jumladan: Oʻzbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabr “Ilm-fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida”gi OʻRQ-576-son, Oʻzbekiston Respublikasining 2020

yil 24 iyulda «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli farmoni shular jumlasidandir.

Shuningdek,so'nggi yillarda ilm-fan sohasini ustuvor rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-sonli Farmoni; O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" 2019 yil 29 oktyabrdagi O'RQ-576-son Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2018 yil 29 sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 9 martdagi 133-son qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" 2019 yil 24 dekabrdagi 1030-son qarori. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabr "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyul «Innovatsion faoliyat to'g'risida» gi O'RQ-630-sonli Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-sonli Farmoni.*

Respublikamizda ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlanmalarning sifati, samaradorligi va manfaatdorligini ta'minlash maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan jami 49 ta normativ-huquqiy hujjat joriy qilindi va qator yangi hujjatlar ustida ishlanmoqda. Bu say-harakatlar, albatta, soha rivojida, ilmiy faoliyat subyektlarining huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yukori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun dastur tuzish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chet tillari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lgan va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishda dasturning ahamiyati kattadir. Dastur zamonaviy ilmiy izlanishlar, dolzarb muammolarga bag'ishlangan savollarni o'z ichiga oladi.

Til kompetensiyasi:

a) leksik kompetensiya: mavzularga oid leksikani va sohaga oid atamalarni ilmiy darajada rivojlantira olish; so'z yasash modellari asosida so'zlar hosil qila olish;

b) grammatik kompetensiya: ixtisoslashgan matnlardagi (masalan, tilshunoslik yoki tarjimaga oid) grammatik strukturalarni qo'llay bilish; artiklni ilmiy uslubda to'g'ri qo'llay bilish; turli matnlarning lingvistik yoki diskurs tahlilini qila olish.

Tinglab tushunish:

- o'z mutaxassislik sohalariga oid bo'lmagan abstrakt va murakkab mavzulardagi keng ko'lamli nutqlarning ayrim jihatlarini oydinlashtirib olish zarurati tug'lsa, ayniqsa so'zlovchining talaffuzi noaniq yoki til dialekti notanish bo'lgan hollarda ham tushuna olish;
- keng ko'lamdagi idiomatik va og'zaki nutq iboralarini farqlay olish va ijtimoiy muhitga mos tarzda tilning o'zgarish xususiyatini tushuna olish;
- keng ko'lamli nutqlarni aniq tuzilmagan hollarida ham tushunish va ulardagi ochiq oydin va yashirin fikrlarni ham yetarli darajada anglay olish;
- muhokama va debatlardagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi murakkab muloqotni, mavzular birmuncha mavhum yoki notanish bo'lgan hollarda ham, osonlik bilan tushungan ravishda kuzata olish;

- keng qamrovli, tilning ayrim nostandart ishlatilish hollarini ham o‘z ichiga olgan audio tasma va axborot materiallarini tushuna olish va so‘zlovchilar o‘rtasidagi birmuncha yashirin qarashlar va munosabatlar, kichik detallarning ham muhim jihatlarini aniqlay olish;
- filmlarni sleng va idiomatik iboralarning ishlatilish hollarininig aksar qismini tushungan holda kuzata olish;
- sifat jihatdan birmuncha yomon, ovoz eshitilishi noaniqroq bo‘lgan ommaviy e‘lonlardan (masalan, temir yo‘l vokzali, sport maydonchasidagi e‘lonlar) tegishli ma‘lumot ola bilish.

Gapirish:

Dialog

- ilmiy va sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali) larda muloqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish;
- fikrlarni aniq ifodalagan holda muhokamalarda faol qatnasha olish;
- vaziyatga mos tarzda tilni moslashtira olish;
- o‘z rasmiy nuqtai nazarini ishonch bilan ilgari surgan holda qarshi tomonning bir qator murakkab savol va sharhlariga mos ravishda ravon va spontan tarzda javob bera olish;
- seminar va muhokamalarda so‘rash, oydinlik kiritish, nutqni bo‘lish va to‘ldirish strategiyalarini mos ravishda qo‘llay olish.

Monolog

- sohaga oid mavzular bo‘yicha prezentatsiya va ma‘ruzalar qila olish;
- obyekt, subyekt, vaziyat va hodisalarni batafsil tasvirlay olish;
- ma‘ruza, muhokama yoki maqolaga to‘g‘ri va ravon tarzda xulosa qila olish;
- ilmiy nuqtai nazar yoki fikrni rivojlantirish, dalillar keltirish orqali asoslay olish.

2. Imtihonning tuzilishi:

1. Mutaxassislik bo‘yicha matnni o‘qish, tarjima qilish gapirib berish
2. Gazeta maqolasining asosiy mazmunini so‘zlab berish

3. Ilmiy ish bo'yicha suhbat

Z. Kirish imtihonining asosiy talablari

Ingliz tilining morfologik tuzilishi va tovush tizimi;

- o'rganilayotgan tildan ushggish olib borilayotgan tilga tarjima amaliyoti spetsifikasi va stilistik xususiyatlari, meyoriy grammatika asoslarini bilishi;
- muloqotning og'zaki va yozma turlarini bilishi;
- xorijiy tillarda fikrni lisoniy ifoda qilish usullari va ularning nutq; og'zaki va yozma shakllarida qo'llanilishi qonuniyatlari;
- nutqning dialogik va monologik shakllari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- tilning zamonaviy holati tavsifi, yozuv, grafika, orfografiya, punktuatsiya, leksik-grammatik turkumlar, so'z tuzilishi, boshqa tillardan so'z kirib kelishining umumiy tarixini;
- sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari sintaksisi, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlari;
- ingliz tilida so'zlovchi shaxslarning keng tarkalgan kundalik va kasbiy vaziyatlarda so'zlagan nutqni tushuna olishi: eshitilayotgan matnlardan (radio, televideniye, videokassetalar) hamda ilmiy matnlarni tushuna olish va ulardan o'zi uchun zarur bo'lgan axborotni ola bilishi;
- matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, turli janrga oid matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma tarjima qila olishi;
- xorijiy til bo'yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, kommunikativ ko'nikmalarini faollashtirish uchun zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanishi;
- asosiy o'rganilayotgan chet tildagi hozirgi adabiy shaklida turli xil murakkablikdagi matnlarning yozma tarjima qilish;
- o'rganilayotgan tilda xorijiy mutaxassislar bilan kasbiy va maishiy vaziyatlarda jonli muloqot olib borishi;
- har xil mavzu va matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat, nutq va ma'ruzalarni og'zaki izchil tarjima qila olishi;
- yangi informatsion texnologiyalardan kasbga yo'naltirilgan maqsadlarda foydalana olishi talab etiladi ;

- kiruvchilar hozirgi zamon ingliz va nemis tili talaffuzning ustivor yo‘nalishlarini bilishi, segmental va suprasegmental fonetik va fonologik xatolarni aniqlashi, ularni aniqlash usullari, hamda ulardan holi bo‘lish omillarini bilishi.

Talaffuz aspekti: talaffuzning to‘rt mexanizmi: kuch, tebratuvchi, rezonatorli hamda tusik; xosil kiluvchi nutq organlari, ularning nutq tovushini hosil qilishidagi ahamiyati va vazifalari: unli tovushlari talaffuzlarining tasnifi va muammolarini bilishi kerak.

- mutaxassisligi buyicha asl nusxadagi matnni ukish, lug‘at yordamida yozma yoki og‘zaki tarjima qilish: 1500 nashr. Tayyorlanish vaqti - 45 daqiqa nazorat turi - matnni birorta qismini ovoz chiqarib o‘qish, yozma tarjimani tekshirish.
- o‘qilgan matnni asosiy mazmunini o‘zining aktiv vokabulyari asosida so‘zlab berish.
- ijtimoiy siyosiy sohaga bag‘ishlangan matnni lug‘atsiz o‘qib uni asosiy mazmunini ingliz va nemis tilida so‘zlab berish va ijtimoiy siyosiy mavzuda suhbatlashish (nashr belgisining soni 1500).

Tayyorlanish vaqti - 15 daqiqa.

ADABIYOTLAR :

Ingliz tili

- 1.Fried-Booth D.L. Resource Books for Teachers: Project work. – Oxford: Oxford University Press, 1986
- 2.Graham Palmer. Reading extra. Cambridge University Press, 2004
- 3.Graham Palmer. Listening extra. Cambridge University Press, 2004
- 4.Graham Palmer. Speaking extra. Cambridge University Press, 2004
- 5.Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Destination B2. Macmillan Publisher Limited, 2012. 258pp.
- 6.McCarthy, M and O'Dell, F. (1999) *English Vocabulary in Use-Elementary*. Cambridge:CUP
- 7.McCarthy, M and O'Dell, F. (1999) *English Vocabulary in Use-Pre-intermediate* . Cambridge:CUP
- 8.Virginia Evans, Jenny Dooley. Enterprise 3. Express Publishing, 2002. 155pp.
- 9.Virginia Evans, Jenny Doley. Mission: FCE 1. Express publishing, 1996
- 10.Robinson C., Parker H. Themes for Listening and Speaking. – Liverpool: University of Liverpool Press, 1992.
11. Abduazizov A.A., Do'stboboyeva D.U., Rahmonberdiyeva U.X. Asqarova M.A., Qambarov N.M., Ingliz va nemis tili amaliy fonetikasi. – T., "O'qituvchi", 1992.
12. Davidov M.V. Posobiye po intonatsii angliyskogo yazika. – M., 1975.
13. Antipova A.M. Fonostilistika angliyskogo yazika. – M., 1985.
14. Mo'minov O., Qo'ldoshev A, Xoshimov U. Ingliz va nemis tili darsligi. – T., 2005.
15. Gordon V., Krylova V. A Modern English Grammar. – Moscow. 1980.
16. Jones D. An Outline of English Phonetics. – Cambridge, 1956.
17. Jones D. Everyman's English Pronouncing Dictionary. M. 1963. New Edition.

Nemis tili

1. A.B. Abdullayeva, D.R. Mirsodiqova und andere. Deutsch 2. –Toshkent, 2009.
2. Ilse Sander, Birgit Braun, Margir Doubek u.a. DaF kompakt A1-B1 Kursbuch mit 3 Audio –CDs .Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011.

3. Birgit Braun, Margir Doubek, Andrea Frater -Vogel u.a. DaF kompakt A1-B1 Übungsbuch mit 3 Audio –CDs .Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011.
4. DaF kompakt A1-B1 Grammatik. Deutsch als Fremdsprache für Erwachsene. Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2012
5. S.Saidov. Deutsche Grammatik in Übungen. – Toshkent, 2003.
6. S.A. Ziyayeva, S.D. Novikova, Die Übersetzung in die Muttersprache und ins Deutsche. T.; 2010.
7. Zavyalova V.M., Ilina L.V. Prakticheskiy kurs nemetskogo yazika. M. 2003.
8. Mamatov V. va boshq. Deutsch für Hochschulen. – Toshkent 2003.
9. Autorenkollektiv. Studio. Deutschland, 2008.
10. Norbert Becker und Jörg Braunert. Alltag, Beruf & Co. Kursbuch+Arbeitsbuch mit Audio und CDs. Hueber Verlag, Ismaning, Deutschland 2009.
11. Nemischa-ruscha, ruscha-nemischa, nemischa-o‘zbekcha lug‘at (barcha nashrlari)
12. Mamatov V. va boshq. Deutsch für Hochschulen. – Toshkent 2003.
13. Yelina N. P. i dr. Deutsch. –Toshkent 2003.
14. Tangram 1B. Deutsch als Fremdsprache. – Ismaning, Deutschland. 2002.

Fransuz tili

1. A. Volte. Belle ville “Methode de français”. Cahiers d’exercises. –Belgique, 2004.
2. M.N. Popova, J.A. Kazakova, G.M. Kovalchuk. Fransuz yazik. – M.; 2007.
3. Ph.Dominique. Le nouveau sans frontiers. Paris, 1998.
4. O.V. Saxno, R.S. Ibragimova. La vie de l’Ouzbekistan et de la France. – T.; 2002.
5. A. Volte. Belle ville “Methode de français”. Cahiers d’exercises. –Belgique, 2004.
6. M.N. Popova, J.A. Kazakova, G.M. Kovalchuk. Fransuz yazik. – M.; 2007.
7. Ph.Dominique. Le nouveau sans frontiers. Paris, 1998.
8. O.V. Saxno, R.S. Ibragimova. La vie de l’Ouzbekistan et de la France. – T.; 2002.

Internet sahifalari :

Ingliz tili

1. www.toefl.com
2. www.englishtraining.ru
3. www.lingua.ru

4. www.teachingenglish.org.uk
5. <http://www.onestopenglish.com/>

Nemis tili

1. www.regma.de
2. www.krie.de
3. www.zum.de
4. www.lehrer-online.de
5. www.leixilotte.de
6. [.lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik](http://lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik)

Fransuz tili

1. www.granddictionnaire.com
2. www.francophonnie.hachette-livre.com
3. www.portail.lettres.net
4. www.citationsdumonde.com
5. www.français-affaires.com